

BOSHLANG'ICH SINFDA MULOQOT MUHITINI YARATISHDA – SINFLAR RAHBARINING METODIK YONDASHUVI

Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17250121>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda muloqot madaniyatini o'stirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining muhim ekanligi, ularning bola muloqotida tutgan ahamiyati to'g'risida.

Kalit so'zlar: Metodik qo'llanmalar, ijobiy muloqot uslublari, axloqiy sifatlar, psixologik uslublari, ijtimoiy faollikka yondashuv.

Kirish. Mustaqillik yillarida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faollikka ega shaxslar qilib tarbiyalashdir. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning dunyoqarashi, tafakkuri va eng muhimi, muloqot ko'nikmalari shakllanadigan poydevor hisoblanadi. Boshlang'ich sinfdan yaratiladigan muloqot muhiti o'quvchilarning ijtimoiylashuvi, bilimlarni o'zlashtirishi, o'zini erkin ifoda etishi va axloqiy sifatlarni egallashi uchun muhim omil sanaladi. Sinf rahbari esa bu jarayonning bosh tashabbuskori va yo'naltiruvchisi sifatida metodik yondashuvlarni to'g'ri tanlashi orqali ijobiy muloqot muhitini yaratadi.

Boshlang'ich sinf davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchilarning muloqotga bo'lgan ehtiyoji yuqori bo'ladi. Muloqot muhiti nafaqat bilim olish jarayonida, balki ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda ham asosiy vosita vazifasini bajaradi. Psixolog olim Vygotskiy muloqotning bola rivojlanishidagi o'rnini alohida ta'kidlab, "bola jamiyatda, muloqot jarayonida rivojlanadi" degan g'oyani ilgari surgan. Shunday ekan, boshlang'ich sinflarda sog'lom va samimiy muloqot muhiti yaratish – o'quvchilarda axloqiy, ijtimoiy va intellektual ko'nikmalarni shakllantirishda muhim shartdir.

Sinf rahbarining faoliyati nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy yo'nalishlarga ham qaratilgan. U sinfdan ijobiy psixologik muhitni yaratish, o'quvchilar o'rtasida do'stona munosabatlarni shakllantirish, turli nizolarni bartaraf etish va har bir o'quvchining shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga mas'uldir. Shuningdek, sinf rahbarining metodik yondashuvi o'quvchilarning qiziqishlari va yosh xususiyatlariga mos bo'lishi kerak. Bu jarayonda ota-onalar bilan hamkorlik, sinfdan tashqari tadbirlar, individual suhbatlar va psixologik kuzatuvlar katta ahamiyat kasb etadi.

Sinf rahbarining metodik yondashuvlari quyidagilar orqali samarali natija beradi:

1. "Suhbat va muloqot mashg'ulotlari" – o'quvchilar erkin fikr bildirish, savol berish, tinglash va o'zaro hurmatni shakllantiradi.

2. "Guruhli ishlar" – hamkorlik, birgalikda mas'uliyatni his qilish, jamoa ruhini rivojlantiradi.

3. "Rolli o'yinlar" – o'quvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarda o'zini sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladi.

4. "Innovatsion metodlar" – interfaol usullar, multimedia va AKT vositalaridan foydalanish orqali zamonaviy muloqot muhitini yaratadi.

5. "Milliy qadriyatlarni singdirish" – xalq og'zaki ijodi, maqol, matal, ertaklar orqali o'quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, sinfda ijobiy muloqot muhiti yaratilgan taqdirda o'quvchilarning darslarga ishtiyiqi ortadi, ular o'z fikrini erkin bayon qila oladi va jamoa bilan ishlash ko'nikmalari tezroq shakllanadi. Aksincha, muloqot muhiti sust bo'lgan sinflarda o'quvchilar o'z fikrini yashirishga moyil, passiv bo'lib qoladi. Shu boisdan ham sinf rahbarining metodik yondashuvi bevosita ta'lim sifati va tarbiya natijalariga ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinfda muloqot muhitini yaratish – sinf rahbarining eng muhim pedagogik vazifalaridan biridir. U o'quvchilarni o'zaro hurmat, bag'rikenglik, hamkorlik va do'stona munosabatlarga o'rgatishi orqali jamiyatda faol, mas'uliyatli va barkamol shaxslarni voyaga yetkazadi. Metodik yondashuvlar – suhbat, guruhli ishlar, rolli o'yinlar, innovatsion texnologiyalar va milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya usullari o'quvchilarda nafaqat bilim olish jarayonini, balki axloqiy muloqotni ham rivojlantiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. (2020 y.)
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (2020 y. yangi tahrir)
3. Sattorova, M. A., & Ziyaqulova, M. S. (2025). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA MUTAFAKKIRLAR MEROSI ORQALI MULOQOT MADANIYATI VA MILLIY G'URUR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH. *Inter education & global study*, (4), 517-524.
4. The importance of riddles in the development of students creativity in the learning process ZMS Qizi - *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 2021
5. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING LUGATLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA KREATIVLIGINI OSHIRISH
6. MSQ Ziyaqulova, HIQ Raxmatova - ... : Innovative, educational, natural and social sciences, 2021
7. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi "Boshlang'ich sinf o'quvchilariga axloqiy tarbiya berishda hadislarning ahamiyati" TA'LIM FAN VA INNOVATSIYA. -ISSN 2181-8274, 2024-yil.
8. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxslararo muloqot madaniyatini shakllantirish". "Муғаллим ҳам үзликсиз билимлендириў" /Илимий-методикалық журнал 2024 5/2-сан ISSN 2181-7138. Нөкис -2024
9. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi "Problems and solutions of scientific and innovative research" "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijobiy fazilatlarini shakllantirish mexanizmi" - 2024-yil 182-1187-betlar Volume 01. ISSUE 07 universalconference.us
10. M.Sh. Ziyaqulova. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI // *Inter Education & Global Study*. 2025. №9. URL: <https://researcher.uz/article/boshlang-ich-sinf-o-quvchilarida-muloqot-madaniyatni-shakllantirishning-o-ziga-xos-jihatleri-013208> (дата обращения: 25.09.2025)